

AN'ANAVIY VA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING TA'LIMDAGI UYG'UNLIGI

Yo'ldashev Umirzoq Xamza o'g'li, ChDPU o'qituvchisi

THE HARMONY OF TRADITIONAL AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION

Yuldashev Umirzoq Xamza o'g'li, Teacher at ChDPU

СОЧЕТАНИЕ ТРАДИЦИОННЫХ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

Юлдашев Умирзок Хамза оглы, преподаватель ЧГПУ



<https://orcid.org/0009-0001-5236-7336>

e-mail:

umrzoqyoldashev23@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada an'anaviy va raqamli texnologiyalarning uyg'unlashuvi orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC), virtual laboratoriyalar, Google Classroom kabi vositalardan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: an'anaviy texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, uyg'unlik, innovatsion pedagogika, raqamli ta'lim vositalari, ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar, zamonaviy ta'lim platformalari, o'qitish samaradorligi.

Abstract: The article highlights the possibilities of effective organization of the educational process through the combination of traditional and digital technologies. It also shows ways to increase the effectiveness of education through the use of tools such as massive open online courses (MOOC), virtual laboratories, Google Classroom.

Keywords: traditional technologies, digital technologies, combination, innovative pedagogy, digital educational tools, educational technologies, interactive methods, modern educational platforms, teaching effectiveness.

Аннотация: В статье рассматриваются возможности эффективной организации образовательного процесса посредством сочетания традиционных и цифровых технологий. В нем также описываются способы повышения эффективности образования за счет использования таких инструментов, как массовые открытые онлайн-курсы (MOOC), виртуальные лаборатории и Google Classroom.

Ключевые слова: традиционные технологии, цифровые технологии, гармония, инновационная педагогика, цифровые средства обучения, образовательные технологии, интерактивные методы, современные образовательные платформы, эффективность обучения.

KIRISH. O'quv jarayonini tashkil etishda an'anaviy metodlar va axborot texnologiyalarining integratsiyasi zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu integratsiya o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalar o'zlashtirishini kuchaytirish, ularga individual

yondashuvni ta'minlash va ta'limni yanada qiziqarli, interaktiv hamda funksional qilishda muhim rol o'ynaydi. An'anaviy ta'lim metodlari o'qituvchining darslik va ma'ruzalar asosida o'quv jarayonini olib borishiga asoslangan bo'lsa, zamonaviy axborot texnologiyalari ushbu jarayonni interaktiv va

dinamik holga keltirish imkonini beradi. Masalan, darsliklar va ma'ruzalar: asosiy nazariy bilimlarni yetkazish; interaktiv vositalar: ma'ruza taqdimotlari, video darsliklar, virtual laboratoriyalar, masofaviy ta'lim platformalari yordamida ta'lim jarayonini boyitadi; ma'lumotni takrorlash va mustahkamlash: onlayn testlar, viktorinalar, virtual muhitlarda amaliy mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi.

Axborot texnologiyalarining joriy qilinishi orqali quyidagi natijalarga erishiladi:

1. Interaktivlik oshadi: raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonida talabalar va o'qituvchilar o'rtasida faol o'zaro muloqotni ta'minlaydi.

2. Individual ta'lim yo'llari: har bir talabaga moslashtirilgan mustaqil ta'lim modellarini qo'llash imkonini beradi.

3. O'quv jarayonining monitoringi: talabalarining darsga qiziqishi va bilimlarini baholash osonlashadi.

Bugungi kunda zamonaviy ta'limda o'quv jarayonini yanada rivojlantirishda bir qancha pedagogik va texnologik modellar muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari zamonaviy o'quv jarayonini rivojlantirishda muhim vositadir. Ularning o'zaro uyg'unlashuvi ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarni qiziqitirish va ularning bilim olish jarayonini sifat jihatidan yaxshilashga xizmat qiladi. Quyidagi yondashuvlar orqali bu jarayonni yanada to'liq amalga oshirish mumkin:

1. Ma'ruza va seminarlarni raqamli texnologiyalar bilan boyitish. Ma'ruza va seminarlarni raqamli texnologiyalar bilan boyitish ta'lim jarayonini vizual va interaktiv shaklda tashkil etishni anglatadi. Ushbu yondashuv quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

• **Multimedia materiallaridan foydalanish:** Ma'ruzalar va seminarlar vaqtida slaydlar, videoroliklar, interaktiv grafikalar, animatsiyalar kabi vositalardan foydalanish. Bu talabalar uchun mavzuni yaxshiroq tushunish va uni amalda qo'llash imkonini beradi.

• **Elektron doskalar va taqdimot vositalari:** Interaktiv doskalar orqali ma'lumotni tasviriy shaklda ko'rsatish va shu orqali talabalar bilan jonli muloqotni kuchaytirish.

• **Simulyatsiya va virtual laboratoriyalar:** Texnik fanlar va aniq ilmiy yo'nalishlarda talabalar uchun tajribalarni amaliyotda sinovdan o'tkazish imkonini beruvchi virtual vositalarni qo'llash.

Masalan, fizik yoki kimyoviy tajribalarni virtual muhitda yaratish.

• **Raqamli platformalar yordamida seminar o'tkazish:** Google Meet, Zoom yoki Microsoft Teams kabi platformalarda onlayn seminarlar tashkil etish. Bu usul ayniqsa pandemiya va masofaviy ta'lim davrida samarali ishlatiladi.

2. Masofaviy va an'anaviy ta'limni birlashtirish. Masofaviy va an'anaviy ta'limni birlashtirish talabalarga moslashuvchan ta'lim shaklini yaratishga imkon beradi. Bunda quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:

• **Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC):** Talabalar Coursera, Udey, Khan Academy kabi platformalardagi kurslardan foydalanib, darslarda olgan bilimlarini mustahkamlaydi. Ushbu kurslar individual sur'atda bilim olish imkonini ta'minlaydi.

• **Flipped Classroom modeli:** An'anaviy ta'limning yangi shakli bo'lib, bunda talabalar darsga kelishdan oldin mavzuni onlayn platformalarda o'rganadi, dars vaqtida esa faqat muhokama, amaliy mashg'ulot va topshiriqlar bajariladi.

• **Gamifikatsiya orqali masofaviy ta'lim:** Talabalarining o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritish. Masalan, mavzularni o'rganishda o'yin shaklida topshiriqlarni bajarish.

• **Kombinatsiyalashgan ta'lim:** An'anaviy darslarga qo'shimcha ravishda masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish. Masalan, dars jarayonida o'tilgan materialni mustahkamlash uchun Moodle yoki Google Classroom orqali qo'shimcha topshiriqlar beriladi.

Xo'sh, bunday yondashuvning O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ahamiyati qay darajada? O'zbekiston Respublikasida ta'lim jarayonini rivojlantirish strategiyalari va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi axborot texnologiyalarini ta'limga joriy qilishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu o'quv jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish, talabalarining raqamli savodxonligini oshirish va pedagoglarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bunda asosiy vazifalar sifatida quyidagilar belgilangan: ta'lim standartlarini zamonaviy texnologiyalarga moslashtirish; an'anaviy va raqamli texnologiyalarning didaktik

imkoniyatlarini uyg'unlashtirish; ta'lim sifatini oshiruvchi usullarga investitsiya qilish va h.z.

XULOSA. O'quv jarayonida an'anaviy metodlar va axborot texnologiyalarining integratsiyasi ta'limni yanada mazmunli, samarali va qiziqarli qilish uchun zarur. Bu o'quvchilarning qiziqishini oshirib, ularning ta'limga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi va ularni bozor iqtisodiyoti talablariga mos malakali kadrlar sifatida shakllantiradi. Tajribaning muvaffaqiyatli qo'llanishi natijasida o'quv jarayoni yanada innovatsion ko'rinishga ega bo'ladi va barcha bosqichda rivojlanishga erishiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Wheatley, D.W. and Gillings, M. 2002. Spatial technology and archaeology: a guide to the archaeological applications of GIS. London: Taylor & Francis.

2. Демкин В.П. Можаяева Г.В. Гуманитарная информатика или информатика для гуманитариев: постановка проблемы // Информационный бюллетень Ассоциации. История и компьютер. N29. М. 2002; Гуманитарная информатика: Сб. статей / Под ред. Г.В. Можаяевой. Томск, 2004. Вып. 1.

3. Колин К.К. Фундаментальные основы информатики: социальная информатика: Учебное пособие для вузов. Екатеринбург, 2000. 350 с.; Социальная информатика: основания, методы, перспективы / Отв. ред. Н.И. Лапин. М. 2003. 216 с.

4. Экономическая информатика. Введение в экономический анализ информационных систем: Учебник. М. 2005. 960 с.; Правовая информатика. Справочные правовые системы: Учебное пособие. М. 2005. 264 с.

